

# “Milliy sanoat zanjiri” ko‘rgazmasi sanoat kooperatsiyasi uchun yangi imkoniyatlar maydoniga aylandi

// 14.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/milliy-sanoat-zanjiri-ko-rgazmasi-sanoat-kooperatsiyasi-uchu>



Toshkent viloyati Ohangaron shahrida “Milliy sanoat zanjiri” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan tadbirda **“O'zkimyosanoat” AJ** tarmoq korxonalari ham faol ishtirok etmoqda.



Mazkur tadbir sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yirik sanoat korxonalari o'rtasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilgan.



**Ko'rgazma doirasida tog'-kon sanoati va metallurgiya yo'nalishidagi yuqori texnologik**

**mahsulotlar, sanoat startaplari, ilmiy ishlanmalar hamda istiqbolli loyihalar namoyish etilmoqda.** Shuningdek, mahalliy kontentni kengaytirish, "shatakka olish" tizimi orqali sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, kafolatli xarid shartnomalari va yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlari ham taqdim etilmoqda. **Tadbir davomida kimyo sanoati korxonalari tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar va ularni mahalliyashtirish imkoniyatlari yuzasidan ma'lumotlar taqdim etildi.**



Ko'rgazmada B2B va B2G uchrashuvlari tashkil etilib, tadbirkorlar, yirik sanoat korxonalari, tijorat banklari hamda davlat tashkilotlari o'rtasida muzokaralar olib borildi.



